

# Demografik holat

(dastlabki ma'lumotlar)

## Doimiy aholi soni.

Farg'ona viloyatining doimiy aholisi soni 2020 yil 1 **yanvar** holatiga 3752,0 ming kishini tashkil etib, 2018 yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 68,7 ming kishiga yoki 1,9 foizga o'sgan. Jumladan, shahar aholisi soni 2117,7 ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi 56,4%), qishloq aholisi soni 1634,3 ming kishini (43,6 %) tashkil etdi.

### **E'tibor bering:**

**2019 yil yanvar-** dekabr


Aholi soni **68,7 ming** kishiga ko'paydi.

Tirik tug'ilganlar soni **87,9 ming** nafarni tashkil etdi.


**17,3 ming ta** vafot etganlar qayd etildi.

Shahar, tuman hokimliklarining FHDYO bo'limlarida **35,0 ming ta** nikoh va **3,2 ming ta** ajralishlar ro'yxatga olindi.

## Farg'ona viloyati aholisining umumiy o'sishi (2019 yil yanvar- dekabr oylarida) ming kishi




### Hududlar kesimida doimiy aholi sonining taqsimlanishi (2020 yil 1 yanvar holatiga, ming kishi)




Viloyat hududlari kesimidagi tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, 2020 yil 1 yanvar holatiga eng ko'p aholi soni Farg'ona shahrida 288,9 ming kishi (viloyat aholisi sonidagi ulushi 7,7 %) va Quva tumanida 257,1 ming kishini (6,9 %), aksincha eng kam aholi soni Quvasoy shahrida 93,2 ming kishi (2,5 %) va So'x tumanida 77,7 ming kishini (2,1 %) tashkil etdi.

Hududlar kesimida aholining eng yuqori o'sish sur'ati 2018 yilning mos davriga nisbatan Bog'dod tumanida 2,1 % ni, Toshloq tumanida 2,0 % ni, Marg'ilon va Quvasoy shahlarida 1,7 % ni, aksincha eng kam o'sish sur'ati, Furqat tumanida 1,5 % ni tashkil etdi.



## Demografik holat

### Hududlar kesimida doimiy aholi sonining shahar va qishloqlarga bo'linishi (2020 yil 1 yanvar holatiga, ming kishi)



## Demografik holat



### Ma'lumot uchun:

Tirik tug'ilganlik mezonlaridan (nafas, yurak urishi, kindik pul-satsiyasi, muskullarning beixtiyoriy qisqarishi) biri mavjud bo'lsa ham bola tirik tug'ilgan hisoblanadi. Bunda onaning homiladorlik muddati 22 hafta va undan ortiq, bolaning bo'yi 25 sm va undan ortiq, vazni 500 gramm va undan ortiq bo'lishi lozim.

**Tug'ilish.** 2019 yilning yanvar- dekabr oylarida 87,9 ming ta bola tug'ilganligi qayd bo'lib (bu yerda va bundan keyin tug'ilganlarga faqat tirik tug'ilganlar inobatga olingan), mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti 23,6 promilleni tashkil etib, 2018 yilning mos davriga nisbatan 1,3 promillega ortgan).

Tug'ilish koeffitsiyenti 2018 yilning mos davriga nisbatan Furgat tumani (22,5 promilledan 24,6 promillega) va Quva tumani (21,8 promilledan 23,8 promillega) sezilarli o'sgan bo'lib, deyarli barcha shahar va tumanlarda o'sish kuzatildi.

### Shahar va tumanlar bo'yicha tug'ilganlar soni (yanvar- dekabr, kishi)

	2018 y.	2019 y.	O'sish sur'ati
Farg'ona viloyati	81414	87862	107,9
Farg'ona sh.	4753	5252	110,5
Qo'qon sh.	4914	5412	110,1
Quvasoy sh.	1869	1945	104,1
Marg'ilon sh.	4746	5346	112,6
Oltiariq	4539	5031	110,8
Qo'shtepa	4464	4676	104,7
Bag'dod	4861	5360	110,3
Buvayda	5154	5671	110,0
Beshariq	5009	5276	105,3
Quva	5447	6062	111,3
Uchko'prik	5321	5632	105,8
Rishton	4527	4767	105,5
So'x	1731	1827	107,0
Toshloq	4633	4957	107,0
O'zbekiston	5426	5665	104,4
Farg'ona	4866	5028	103,3
Dang'ara	4144	4446	107,3
Furgat	2580	2868	111,2
Yozyovon	2430	2641	108,7

## Demografik holat

**Vafot etganlar.** 2019 yilning yanvar-dekabr oylarida 17,3 ming ta o'lim qayd etilgan bo'lib, Bag'dod, Beshariq, Rishton, Toshloq, O'zbekiston, Farg'ona va Yozyovon tumanlarida 2018 yilning mos davriga nisbatan kamayish yuz bergan

1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti 4,6 promilleni tashkil etib, 2018 yilning mos davriga 4,6 promilleni tashkil etgan .

O'lim koeffitsiyentining sezilarli darajadagi ko'payishi Quvasoy shahri(4,7 promilledan 4,9 promillega), Oltiariq (4,3 promilledan 4,6 promillega), va Quva tumanlarida (4,3 promilledan 4,6 promillega) O'sgan.

### Vafot etganlar



**Erkaklar: 9,4 ming kishi**  
**Ayollar: 7,9 ming kishi**


### Shahar va tumanlar bo'yicha o'lganlar soni(yanvar- dekabr, kishi)

	2018 y.	2019 y.	O'sish sur'ati
<b>Farg'ona viloyati</b>	<b>16975</b>	<b>17286</b>	<b>101,8</b>
Farg'ona sh.	1586	1608	101,4
Qo'qon sh.	1299	1302	100,2
Quvasoy sh.	426	454	106,6
Marg'ilon sh.	1122	1199	106,9
Oltiariq	888	957	107,8
Qo'shtepa	775	841	108,5
Bag'dod	953	917	96,2
Buvayda	873	874	100,1
Beshariq	1002	942	94,0
Quva	1075	1164	108,3
Uchko'prik	920	1000	108,7
Rishton	900	885	98,3
So'x	274	281	102,6
Toshloq	881	872	99,0
O'zbekiston	1098	1082	98,5
Farg'ona	1015	972	95,8
Dang'ara	878	917	104,4
Furqat	595	641	107,7
Yozyovon	415	378	91,7

2019 yilning yanvar- dekabr oylarida qayd etilgan vafot etganlarning 62,7 foizi qon aylanish tizimi kasalliklaridan, 6,0 foizi baxtsiz xodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 8,6 foizi o`simtalardan, 3,8 foizi nafas olish a`zolari kasalliklaridan, 6,1 foizi ovqat hazm qilish a`zolari kasalliklaridan, 1,1 foizi yuqumli va parazitar kasalliklardan hamda 11,7 foizi boshqa kasalliklardan vafot etgan.

Ro`yxatga olingan 1 yoshgacha vafot etgan bolalar soni 514 nafarni tashkil etib, ularning 41,8 foizi perinatal davrda yuzaga kelgan holatlardan, 20,4 foizi nafas olish a`zolari kasalliklaridan, 23,9 foizi tug`ma anomaliyalardan, 4,9 foizi baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 5,0 foizi yuqumli va parazitar kasalliklardan va 4,0 foizi boshqa kasalliklardan vafot etgan.

### Asosiy o`lim sabablari bo`yicha vafot etganlarning taqsimlanishi



**Tabiiy o`sinh.** 2019 yilning yanvar-dekabr oylarida aholining tabiiy o`shishi 70,5 ming kishini tashkil etib, 2018 yilning mos davriga nisbatan 6,1 ming kishiga (2018 yilning yanvar-dekabr oylarida 64,4 ming kishi bo`lgan) o`sgan.




**Nikoh.** 2019 yilning yanvar- dekabr oylarida shahar, tuman hokimliklarining FHDYO bo`limlari tomonidan 34958 ta nikoh qayd etilib, 1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsiyenti 9,4 promilleni tashkil etdi.

Tuzilgan nikohlar soni bo`yicha 2018 yilning mos davriga nisbatan kamayish sur`ati 98,6 foizni tashkil etgan bo`lib, O`zbekiston (kamayish sur`ati 91,8 foiz) va Buvayda (kamayish sur`ati 92,1 foiz) tumanlarida kamayish holatlari yuz berdi.

## Hududlar kesimida nikoh tuzish koeffitsiyenti

(2019 yil yanvar- dekabr oylarida, 1000 aholiga nisbatan, promille)



**Nikohdan ajralishlar.** 2019 yilning yanvar- dekabr oylarida shahar, tuman hokimliklarining FHDYO bo`limlari tomonidan 3192 ta nikohdan ajralish




holatlari qayd etilgan bo`lib, 1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralish koeffitsiyenti 0,9 promilleni tashkil etdi.

Ajrimlar soni bo`yicha 2018 yilning mos davriga nisbatan sur`ati 4,0 foizga o`sgan bo`lib, Marg`ilon(124,7 foiz), va

Farg`ona (122,2 foiz) tumanlarida o`shish holatlari kuzatilgan.

**Hududlar kesimida nikohdan ajralish koeffitsiyenti**  
(2019 yil yanvar-dekabr holatiga,1000 aholiga nisbatan,promille)



**Shahar va tumanlar bo'yicha nikohlar va ajrimlar soni**  
(2019 yil yanvar-dekabr kishi)

	<i>Tuzilgan nikohlar</i>			<i>Nikohdan ajralishlar</i>		
	<i>2018 y.</i>	<i>2019 y.</i>	<i>O`sinh sur'ati (%)</i>	<i>2018 y.</i>	<i>2019 y.</i>	<i>O`sinh sur'ati (%)</i>
<b>Farg'ona viloyati</b>	35448	34958	98,6	3070	3192	104,0
Farg'ona sh.	2295	2398	104,5	393	460	117,0
Qo`qon sh.	2173	2198	101,2	334	352	105,4
Quvasoy sh.	877	852	97,1	101	104	103,0
Marg'ilon sh.	2124	2174	102,4	162	202	124,7
Oltiariq	2250	2214	98,4	159	169	106,3
Qo`sh tepa	1850	1917	103,6	118	122	103,4
Bag`dod	2094	1937	92,5	180	176	97,8
Buvayda	2166	1995	92,1	144	136	94,4
Beshariq	2119	2061	97,3	181	175	96,7
Quva	2503	2354	94,0	190	184	96,8
Uchko`prik	2206	2342	106,2	117	116	99,1
Rishton	1940	1858	95,8	183	165	90,2
So`x	598	599	100,2	34	39	114,7
Toshloq	1912	1928	100,8	107	106	99,1
O`zbekiston	2427	2228	91,8	207	205	99,0
Farg'ona t.	1969	1994	101,3	158	193	122,2
Dang'ara	1723	1760	102,1	129	142	110,1
Furqat	1218	1172	96,2	106	88	83,0
Yozyovon	1004	977	97,3	67	58	86,6



Dastlabki ma'lumotlarga qaraganda viloyatda doimiy aholi sonining milliy tarkibi bo'yicha ulushi eng yuqori ko'rsatkichi foiz xisobida O'zbek millati 89,5 foiz, Tojik millati 5,9 foiz, Qirg'iz millati 2,0 foiz, Rus millati 1,2 foiz va boshqa millatga mansublar 1,4 foizni tashkil etadi.



Millatlar



**Migratsiya.** 2019 yil yanvar-dekabr oylarida viloyat bo'yicha ko'chib kelganlar soni 12667 kishini tashkil etdi.



2019 yil yanvar-dekabr oylarida viloyat bo'yicha ko'chib ketganlar soni esa 14554 kishini tashkil etdi

Migratsiya saldosini minus 1887 kishi bo'lib, 2018 yilning o'tgan shu davrida minus 1366 kishi bo'lgan.



### Aholi migratsiyasi (kishida)

	2018 yil yanvar-dekabr	2019 yil yanvar-dekabr
<b>Ko'chib kelganlar</b>	13312	12667
<b>Ko'chib ketganlar</b>	14678	14554
<b>Migratsiya saldosini</b>	-1366	-1887

O'tgan yilning shu davriga nisbatan ko'chib kelganlar soni 645 kishi, Ko'chib ketganlar soni esa 124 kishiga kamaygan.

2019 yilning 12 oyi davomida migratsiya saldosining eng yuqori kamayish darajasi Furgat tumani (minus 486 kishi) va eng yuqori o'sish darajasi Farg'ona 1470 kishi) shaharlarida qayd etildi.